

TARBIYANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

*Mamatova Xilola Muhiddinovna,
Guliston Davlat Pedagogika Instituti p.f.f.d (PhD)*

hilol-777@mail.ru

*Sayliyeva Umida Sodiqovna
Guliston Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika yo 'nalishi I bosqich talabasi*

Annotatsiya Maqolada tarbiyaga berilgan ta'riflar ,uning inson hayotidagi muhim ahamiyati. Shuningdek uning asosiy tamoyillari va tarbiya berishdagi kamchiliklar tarbiyaning jamiyatdagi asosiy o'rni, tarbiya va ta'limning bir xilda olib borilishi keng yoritilgan.


Kalit so'zi: Tarbiya ,shaxs, mahalla,yuksalish,jamiyat,ta'lim, pedagog,ma'naviyat,axloq ,xulq, davo,me'yor ,inson,qadimiy,abadiy.

Tarbiya–shaxsda muayyan jismoniy ,ruhiy,axloqiy,ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon .Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi .Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir .Tarbiya bo'lmasa alohida odam ham, kishilik jamiyati ham, mavjud bo'la olmaydi, chunki inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya barcha narsaning asosi hisoblanadi. Hattoki ta'limning asosi ham tarbiyadir. Buyuk faylasuf olim Demokrit aytganidek "insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa –tarbiyadir". Chindan ham haqiqiy inson va jamiyatga kerakli shaxs bo'lib yetishish uchun eng avvalo yaxshi tarbiyaga ega bo'lmoq kerak.

Tarbiya odamni shaxsini shakllantirishga, jamiyat bilan aloqasini yaxshilashga shuningdek jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy ,ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga yo'naltirilgan hamma tadbirlar harakatlar intilishlar yig'indisini bildiradi. Bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. Tarbiya eng avvalo oiladan boshlanadi. Farzand tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratmoq bu borada ota-ona bobo-buvarlar, oila a'zolari juda qattiq turmog'i zarur. Bolalikda berilgan tarbiya qanday bolsa katta bo'lgan sayin o'z o'zgarish va rivojlanishlarini namoyon qilib boradi. Tarbiya berishda hech qachon shoshqaloqliklarga yo'l qo'ymaslik zarur, Jan Jak Russo aytganidek tarbiyadagii eng katta xato bu o'ta shoshqaloqlikdir . Yosh avlodni tarbiya qilayotgan shaxslar avvalambor o'zlari tarbiyali bo'lmoq' va har tomondan yoshlarga, yosh avlodga o'rnak bo'la olishi kerak.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng tarbiyaga alohida e'tibor qaratilganining asosiy sababi bu davrda ta'limda ham rivojlanish o'zgarishlar olib borilmoqda edi. Ta'lim-tarbiya doimo birgalikda rivojlanib o'zgarib boradi. Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zlarining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch asari" da ham bunga alohida fikr bildirib o'tganlar. Ular shunday deydilar:" ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi– bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasi. Albatta ta'lim va tarbiyani rivojlanishi bir xil olib borilsagina jamiyatda tarbiyali, bilimli har tomonlama yetuk shaxslar mutaxassislar yetishib chiqadi. Bizning mamlakatimizda insonparvarlik birinchi o'rinda turadi. Bir-biriga mehribon mehmondo'st ochiqko'ngil bolgan bizning xalqimiz har qanday qiyin vaziyatda o'zining shirin



soʻzi, odobi, axloqi, goʻzal tarbiyasi orqali osongina chiqib keta oladi. Tarbiyali xalqning bolalarigina bilimli boʻladi va oʻz oilasiga, jamiyatiga, vataniga foydasi tegadigan yetuk inson boʻlib yetishadi. Oilada tarbiyaning oʻrni juda katta boʻladi chunki daraxtga ham birinchi qanday ishlov berilsa u katta bolgan sayin shunday oʻsishda davom etadi, agarda nihol payti notoʻgʻri parvarish qilinsa va egib qoʻyilsa shu tarzda oʻsadi va rivojlanadi va bunday daraxt koʻpincha sinib ketishi ham mumkin. Agar nihol payt toʻgʻri parvarish qilinsa, kundan-kunga goʻzal, chiroyli boʻlib inson koʻzini yashnatadigan darajada oʻsib boraveradi. Shuningdek farzandga ham goʻzal tarbiya berish ota onaning oʻziga bogʻliq.

Farzand tarbiyasiga juda katta eʼtibor qaratmoq va bu borada masʼuliyatli boʻlmoq kerak kerak emas balki shartdir. Farzandning kelajakda qanday shaxs boʻlib yetishi uning olgan tarbiyasiga bogʻliq boʻladi. Oilada toʻgʻri tarbiya olgan bola hech qachon turli yomon illatlarga, yomon insonlarga qoʻshilib qolmaydi. Toʻgʻri tarbiya olayotgan va oilada oʻz fikrlarini erkin bayon qila oladigan farzand yuksalgani sayin yon-atrofdagi boʻlayotgan turli ozgarishlarga oʻz fikrini bildira oladi. Tarbiya berganda ota-onalar koʻproq bolani tinglashlari uning oʻz fikrini erkin namoyon qilishiga imkoniyat berish kerak. Agar bola ota-onaning bosimi ostida uning fikrlari inobatga olinmaydigan darajada tarbiya qilinsa bunday bola katta boʻlganda ham birovlarining fikriga mute boʻlib qoladi bunday boladan kelajakda boshqaruvchi inson emas balki boshqariluvchi shaxs yetishib chiqadi. Tarbiyaning bosh boʻgʻini oila boʻlgani uchun ham katta masʼuliyat oilada boʻladi tarbiyaning ikkinchi boʻgʻini bu mahalladir xalqimizda bir naql bor bir bolaga yetti mahalla ota-onadir. Dono xalqimiz bilib aytgan oila mahalla hamkorlikda tarbiya bersa eng afzali shu boʻladi. Jamiyat tayanchi bu oila chunki eng kichik birinchi jamiyat oiladan boshlangan oilada berilgan tarbiyani taʼlimni yanada toʻldiruvchi bu mahalla va shu bilan birga maktabdir. Tarbiyada har bir bolaning yosh xususiyatiga dunyoqarashiga xulq-atvoriga qarab muomala qilishimiz lozim bu hali bolakay nimani ham bilardi deb emas, balki bola boshidan maʼlum degan fikrga amal qilgan holda ish tutishimiz darkor.

Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot ,yo najot–yo halokat,yo saodat–yo falokat masalasidir.Tarbiya-pedagogika,ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir .Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq,yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni oʻrgatmoq tabiblar kabidir,tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilganidek,tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga "yaxshi xulq "degan davoni ichidan "poklik "degan davoni ustidan berib katta qilmogʻi lozimdir.

Har bir inson tarbiyaning har bir turini yaxshi bilmogʻi ,mukammal egallamogʻi kerak. Masalan :estetik tarbiyani yaxshi bilgan inson tasavvuri yaxshi shakllanadi,goʻzallik nafasat, xushulqlik kabi sifatlar insonda namoyon boʻladi .Aqliy tarbiyasi yaxshi shakllangan inson fikrlash isbotlash xulosa chiqarish,umumlashtirish, taqqoslash kabi jarayonlarni hayotda toʻgʻri qoʻllay olish malakasiga ega boʻladi.Tarbiyali insoning har bir ishida tartib , intizom boʻladi .

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxat:

1. Islom Abdugʻaniyevich Karimov. "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch"asari -2017-nashr.
2. Abdulla Avloniy:"Turkiy Guliston yohud axloq".2014-yil nashr
3. Tarbiya haqida maqollar toʻplami.2020yil .nashri.
4. Tarbiya haqida tushunchalar.2000-yil nashr.

